

Qurbonov Bobur Chorshanbiyevich

SamDChTI, Yaqin sharq tillari kafedrası o'qituvchisi

e-mail: kurbonovbobur391@gmail.com Tel: +998973970300

Annotatsiya. Ushbu maqolada matnlarni fors tilidan boshqa tillarga yozma yoki og'zaki ravishda tarjima qilish jarayonida komplementlarning ahamiyati xususida fikr yuritildi. Fors tili komplementlarga boy ekanligi bilan jozibalidir, ammo komplementlarning ko'p ishlatilishi, ularni ba'zilaring boshqa tillarda muqobil shakli yo'qligi, hamda forslar mentalitetidan kelib chiqib komplementlarning ishlatish mavqei va odobining o'ziga xosligi tarjimon ishini ancha murakkablashtiradi. Shu sababli komplementlar tarjimasini muammolarini tadqiq etish masalasi dolzarb sanaladi.

Kalit so'zlar: komplement, tarjima, tadqiqot, og'zaki tarjima, yozma tarjima.

В данной статье рассматривается важность комплементов в процессе письменного или устного перевода текстов с персидского языка на другие языки. Персидский язык привлекателен, потому что он богат комплементами. Однако интенсивное использование комплементов и отсутствие их альтернативных вариантов в других языках усложняют работу переводчика. Поэтому вопрос исследование проблем перевода комплементов считается актуальным.

Ключевые слова: комплемент, перевод, исследование, устный перевод, письменный перевод.

Tarjimashunoslik filologiya fanlarining eng dolzarb va murakkab yo'nalishlaridan biri hisoblanadi. Trajimonlar o'z faoliyati davomida ko'plab muammolarga duch keladilar. Tarjimon ishini murakkablashtiradigan asosiy omillar sifatida ko'plab tarjimashunos olimlar asosan qo'yidagilarni ko'rsatib o'tganlar:

1. **Tillarning turli strukturaga ega ekanliklari.** Tarjimonlar matnni og'zaki yoki yozma ravishda bir tildan boshqa tilga tarjima qilish jarayonida gap tuzilmalarining bir-biriga mos kelmasligi sababli ba'zan xatolarga yo'l qo'yishlari mumkin. Hatto tillar tuzilmasini yaxshigina o'zlashtirib olgan tarjimonlarning ishlarida ham jiddiy xatolar kuzatilishi mumkin. Bu holat ko'pincha og'zaki tarjimalarda, ayniqsa sinxron tarjimalarda kuzatiladi. Til murakkab va doimo rivojlanib boradi. Tarjimon har bir tilning tuzilishini aniq bilishi va tegishli konstruksiyalardan foydalanishi, shuningdek, tarjimada ma'noni buzilmasdan saqlab turishini ta'minlashi kerak.

2. **Til sohibi sanalmish xalqlarning turli madaniyat sohibi ekanligi.** Turli tillarda so'zlashuvchilarning madaniyati tarjima jarayoniga o'z ta'sirini yetkazishi tabiiy. Xalqlarning madaniyatiga tegishli bo'lgan shunday atamalar mavjudki boshqa tillarda ishlatilmaydi va bu kabi atamalarning hatto ekvivalentlari ham mavjud emas. Tarjimon bunaqa holatlarda o'sha atamaning ma'nosini yetkazish uchun unga mufassal izoh berib o'tishiga to'g'ri keladi. Tarjimaning ushbi jihati tarjimondan tilni o'rganish barobarida u tilda so'zlashuvchi xalqning madaniyati va urf odatlarini ham mukammal o'rganishini taqozo qiladi. Masalan forslar tomonidan nishonlanadigan eng qadimgi bayramlardan biri "Sada" bayramidir. Bu bayram dunyoning ko'plab xalqlari uchun notanish bo'lishi mumkin, shu jumladan o'zbeklar uchun. Ba'zi tarixiy manbalarga qaraganda

ushbu bayram forscha “sad” ya’ni yuz so‘zidan olingan. “Sada” bayrami “Mehrgon” (hosil bayrami)dan 100 kun o‘tgandan keyin nishonlanadi shuning uchun “Sada” deyiladi.¹ Endi tasavvur qiling, “Sada” so‘zining mohiyatini oddiy o‘zbek, rus, ingliz yoki boshqa tillarda so‘zlashuvchilarga bir so‘z bilan qanday yetkazish mumkin? Bitta matn ichida agar 10-15 ta shunaqa so‘zlar ishlatilgan bo‘lsa tarjimonning ishi nihoyatda murakkablashadi.

3. **Har bir tilning turli shevalari mavjudligi.** Muayyan tilda so‘zlashadigan mintaqqa qanchalik katta bo‘lsa, uning shevalari shunchalik ko‘p bo‘ladi va dialektik va so‘zlashuv birliklari aralashuvi ehtimoli ham shunchalik yuqori bo‘ladi. Bu kabi holatlarda qiynalmaslik uchun tarjimon tillarning mashhur so‘zlashuv iboralari va eng ko‘p qo‘llaniladigan shevalar bilan tanishishi zarur.

4. **Qo‘shma so‘zlarning tarjimasi.** Qo‘shma so‘z ikki yoki uch o‘zakdan, ko‘pincha ot va sifatdan, ikkita ot dan yoki fe‘l va ot dan yasalgan bo‘ladi. Bu turdagi so‘zlar fors va o‘zbek tillarida juda ko‘p. Ayniqsa fors tilidagi qo‘shma so‘zlarning katta qismida ikta turli ma‘noni ifodalovchi so‘zlardan yangi ma‘no hosil bo‘lishi holatlari ko‘p. Masalan, “xud” o‘zlik olmoshi yordamida yasalgan bir nechta qo‘shma so‘zlarga e’tibor qaratamiz: “xudkor”- خودکار , “xudrou” (xudrav)- خودرو , “xudpisand”- خودپسند va hokazo. Birinchi qo‘shma so‘z “xud” ya’ni o‘zi va “kor” ya’ni ish so‘zlaridan yasalgan. Boshqacharoq aytadigan bo‘lsak, bu qo‘shma so‘zdan o‘zi ishlaydigan degan ma‘noni chiqarishimiz mumkin, ammo fors tilida bu so‘z ruchka ma‘nosini ifoda etadi. Xuddu shunday “xudrou” (xudrav)- خودرو so‘zidan o‘zi yuradigan ma‘no kelib chiqadi, ammo uning asl ma‘nosi mashinadir. “xudpisand”- خودپسند so‘zidan esa o‘zini ma‘qullovchi ma‘nosi chiqishi mumkin? ammo bu so‘z aslida kibrli, maqtanchoq degan ma‘nolarda ishlatiladi. Yana yuzlab misollar keltirishimiz mumkin. Bularning barchasi tarjimonning faoliyati jarayonida qiyinchilik tug‘dirishi mumkin.

Yuqorida ko‘rsatilgan omillardan tashqari yana bir qancha tajimonlikdagi murakkab vaziyat yasovchi omillar, jumladan, ko‘p ma‘noli so‘zlarning tarjimasi, yuqori ixtisoslashgan matnlar bilan ishlash, tarjima jarayonidagi vaqtning cheklanganligi, og‘zaki tarjima jarayonida so‘zlovchining og‘ir xarakteri va boshqa shu kabilar xususida ilmiy tarqiqot ishlarida mulohazalar yuritilgan.

Biz ushbu maqolamizda tarjima ishi uchun muhim bo‘lgan boshqa bir omil, ya’ni fors tilidagi komplementlar haqida to‘xtalmoqchimiz. Ma’lumki fors tili komplementlarga boy til hisoblanadi. Hatto ba’zi holatlarda suhbat paytida komplement ishlatmaslik suhbatdoshga nisbatan hurmatsizlik hisoblanadi. Aynan komplementlarning rangbarangligi va ularning boshqa tillarga qaraganda ancha ko‘p ishlatilishi matnlarni yoki og‘zaki nutqlarni fors tilidan boshqa tillarga tarjima qilish jarayonida qiyinchiliklarni kelib chiqishiga sabab bo‘lishi mumkin. Komplementlarga aloqador bo‘lgan yana bir narsa shuki, turli xalqlar mentalitetiga qarab ularning ishlatilishi ham turlicha bo‘ladi. Fors tilida eng ko‘p so‘zlashuvchi xalq ya’ni eronliklarning komplement ishlatish qoidalari ham boshqa xalqlarnikiga qaraganda ancha farq qiladi. Tarjima vaqtida bu narsaga ham e’tibor qaratishga to‘g‘ri keladi. Tehron universiteti tadqiqotchilari Madaeni va Mostafavilar tomonidan nashr etilgan maqolada aytilishicha “rus kommunikativ madaniyatida maqtovlar ko‘pincha ayollarga aytiladi. Eron muloqot madaniyatida erkaklar

¹ <https://mfa.tj/tg/berlin/view/7075/jashni-sada>

ayollarni kamdan-kam maqtashadi. Eronda begonalarga iltifot bildirish holatlari juda kam nazarga tashlanadi².

Forscha komplementlar asosan ko'chma ma'noli ekanligi sababli tarjima jarayonini qiyinlashtirishi mumkin. Quyida forscha komplementlarning bir qanchasini so'zma-so'z tarjimasi hamda asl ma'nosi bilan ko'rsatib o'tamiz.

1. **Damet garm** [دمت گرم] - nafasing issiq. Bu komplement cheksiz minnatdorchilin izhor etish maqsadida ishlatiladi. O'zbek tilidagi "Sizga gap yo'q", "Siz yagonasiz" kabi iboralarga mos keladi.

2. **Xeyli mohabbat kardid** [خیلی محبت کردید] – ko'p muhabbat qildingiz. Siz juda mehribonsiz, katta xizmat qildingiz degan ma'noni anglatadi.

3. **Bāyese sharmandagi** [باعث شرمندگی] – sharmandalik yoki xijolat sababi. Bu komplement ham minnatdorchilik ifodasidir.

4. **Eyb nadārad** [عیب ندارد] – aybi yo'q – Rozilik bildirish yoki hamfikir ekanlikni bayon qilish maqsadida ishlatiladi.

5. **In jāneb** [این جانب] – bu tomon/taraf – Men so'zining o'rnida ishlatiladi. O'zbek tilidagi "kamina", "faqir" so'zlari kabi.

6. **Chakaretam** [چاکرتم] – Xizmatkoringman. Bu komplement ham minnatdorchilik bildirish maqsadida aytiladi

7. **Cheshm be rāham** [چشم به راهیم] – ko'zlarim yo'lda. Kutib turaman, yana tashrif buyuring, kelib turing kabi ma'nolarni ifoda etadi.

8. **Cheshmetān qashang mibinad** [چشمتان قشنگ می بیند] – Ko'zingiz chiroyli ko'radi. So'zma-so'z tarjimasi ma'nosizdek tuyuladi. Ammo bu komplement insonlarga nisbata ishonch bildirish maqsadida ishlatiladi. Ya'ni sizga to'liq ishonaman, siz aslo xato qilmaysiz degan ma'noni bildiradi.

9. **Chashm** [چشم] – bu so'zni ma'nosi koz. Komplement sifatida rozilik ma'nosini ifodalash uchun qo'llaniladi.

10. **Kāri nadāri?** [کاری نداری؟] – Biron bir ishing yo'qmi? So'raq gap shaklidagi bu komplement ko'proq telefon orqali qilingan suhbatni oxirida suhbatni tugatmoqchi bo'lgan shaxs tomonidan aytiladi. O'zbek tilida ko'p ishlatiladigan "bizga xizmat bormi?" –ga o'xshash komplement.

Komplementlar tarjimon ishi uchun juda muhim sanaladi. Shuning uchun komplementlar tarjimasi masalalari tilshunoslikdagi dolzarb masaladir. Komplementlar lug'atini shakllantirish va ularni muntazam ravishda yangilab borish tarjimonlik bilan shug'ullanadiganlar uchun juda katta kumak bo'ladi.

ADABIYOTLAR RO'YXATI

1. Мадаени А.А., Мостафави Г.Х.. "Речевой акт комплимента в русском и персидском языках" Актуальные проблемы гуманитарных и естественных наук, no. 8, 2013, pp. 177-182.

2. Safarov Sh. S. Kognitiv tilshunoslik.-Jizzax: Sangzor,2006.- B.91

² Мадаени А.А., Мостафави Г.Х.. "Речевой акт комплимента в русском и персидском языках" Актуальные проблемы гуманитарных и естественных наук, no. 8, 2013, pp. 177-182.

THE MULTIDISCIPLINARY JOURNAL OF SCIENCE AND TECHNOLOGY

VOLUME-4, ISSUE-6

3. Қурбонов, Бобур . "“МАЖОЛИС УН-НАФОИС” ВА “ЛАТОЙИФНОМА” ТАЗКИРАЛАРИДА ЗУЛЛИСОНАЙНЛИК АНЪАНАСИ ИФОДАСИ" Oriental renaissance: Innovative, educational, natural and social sciences, vol. 2, no. 3, 2022, pp. 50-57.

4. Gulnoza SAYDALIYEVA, "O‘ZBEKISTONDA ILK TARJIMA NAMOYONDALARI" Oriental renaissance: Innovative, educational, natural and social sciences, vol. 2, no. 3, 2022, pp

5. Ғанишер Раҳимов. Таржима назарияси ва амалиёти. –Тошкент: 2016, 34, бет.

6. Жаббор М. 20-30 йилларда Ўзбекистонда ижтимоий-сиёсий адабиёт таржимаси. Таржима муаммолари, /мақолалар тўплами/ -Т.: 1991.

